

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI
RIVOJLANTIRISH MARKAZI**

Ro'yxatga olindi:

№ IKT - 43

2025 yil «14» 08



Bilim sohasi: sog'liqni saqlash

**«FIBROENDOSKOPIYA»
ixtisoslashtirish kursi**

**O' Q U V D A S T U R I
(o'qish hajmi - 504 kredit)**

Toshkent – 2025

Tuzuvchilar:


F.G. Nazirov - TXKMRM 1-xirurgiya kafedrası mudiri t.f.d., akademik.
O'.N. To'raqulov - TXKMRM 1-xirurgiya kafedrası dosenti, t.f.d.
J.A. Djumaniyazov - TXKMRM 1-xirurgiya kafedrası dosenti, t.f.d.

Taqrizchilar:

R.R. Saatov - TXKMRM xirurgiya va bolalar xirurgiyasi kafedrası dosenti t.f.n.
M.M. Akbarov - "Akademik V.Vohidov nomidagi RIXIATM" DM 1-sonli gepatobiliar xirurgiya va jigar transplantasiyasi bo'limi rahbari, t.f.d., professor, O'zRes SSV xirurgiya bo'yicha konsultanti.


O'quv dasturi Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Markaziy tashkiliy-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan.

2025 y may, bayonnoma № 9

Kengash raisi  M.S. Kasimova

O'quv dasturi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Uzluksiz tibbiy-farmatsevtik
ta'limni Muvofiqlashtiruvchi kengashda tasdiqlangan.

2025 y 14 » avgust, bayonnoma № 3

Kengash raisi  X.A. Akilov

Toshkent – 2025

Kirish

Respublikamizda aholining salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, xirurgik kasalliklarni oldini olish, ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya va profilaktik yordamning sifati va samaradorligini oshirish zamon talabidir. Xirurgik kasalliklarda zamonaviy davolash profilaktika ishlari bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish, ularni kundalik amaliyotda qo'llashga, hamda shifokorning yangi kasbiy kompetensiyani egallab xalqaro standartlarga javob beradigan raqobatbardosh malakali kadrlar tayyorlash xozirgi kunning dolzarb vazifasidir.

Dastur sog'liqni saqlash xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga va tibbiyot amaliyotining joriy ehtiyojlariga mos holda, tibbiyot fani va amaliyotidagi joriy vaziyatning o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Maqsad: Shifokorlarning professional kompetensiyalarini takomillashtirish asosida, ularda va xirurgiyasida zamonaviy, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar diagnostikasi, davolash va profilaktika ishlari bo'yicha so'nggi ma'lumotlar asosida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'rgatish va shakllantirish.

Vazifalar: Shifokor kursantlar fibroendoskopiya sohasida erishilgan yangi fan yutuqlari bilan tanishtiriladi. Zamonaviy va aktual operativ davolash usullari bilan tashishib, o'z bilim ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Ta'lim oluvchilar kontingenti: Respublika, viloyat, shahar, tuman shifoxonalari va poliklinikalari, QVP, kunduzgi stasionarlarda faoliyat ko'rsatuvchixirurglar va tor mutaxassislikka ega bo'lgan shifokorlar uchun mo'ljallangan.

O'quv dasturni o'zlashtira olishi uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi: Shifokorlar xirurgik kasalliklarni differensial diagnostika qila olishi, xirurgik amaliyotlarni bajara olishi, operatsiyadan keyingi reabilitasiyani tog'ri olib borish. Fibroendoskopistlar - xirurgik kasalliklarning asoslarini bilish, ularni differensial baholash, tahlil qilish, izohlash.

Dasturning dolzarbligi. O'quv dasturining dolzarbligi xirurgik kasalliklarda tibbiy-sanitariya va davolash tez yordam ko'rsatishning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, operativ va diagnostik endoxirurgiyaning barcha bo'limlarini o'z ichiga qamrab olgan. Tibbiyot amaliyotida ko'p uchraydigan angioxirurgik kasalliklar masalalariga aloxida e'tibor qaratilgan bo'lib, zamonaviy xorijiy adabiyotlarni tahlili, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda innovasion, zamonaviy ilm-fan yutiqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Dastur hajmi: 504 kredit.

O'qish shakli: o'qish ishdan ajralgan holda o'tkaziladi.

Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: kuniga 6 kredit, mashg'ulotlar 08.³⁰ da boshlanib, 13.²⁵da tamom bo'ladi, darslar 45 min., qiska tanaffus 5 min. Tushlik 30 daqiqa.

O'qish tugagandan so'ng beriladigan hujjat: o'quv dastur bo'yicha ta'lim olishni muvaffaqiyatli yakunlagan va yakuniy attestasiyani topshirgan tinglovchilarga mavzuli malaka oshirganligi haqida davlat namunasidagi sertifikat beriladi.

Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng egallashi lozim bo'lgan kompetensiya: tinglovchi o'quv dasturini o'zlashtirishi natijasid angioxirurgik kasalliklarni aniqlash va davolash bo'yicha umumiy va malakaviy ko'nikmalari shakllantiradi, kasbiy kompetensiyani egallaydi:

- xirurgik kasalliklar tashxislashda fikrlashga tayyorlik, tahlil qilish, differensial tashxislash, sintez qilish, xirurgik kasalliklarni erta aniqlash, fibroendoskopiya diagnostika standartlariga asoslangan holda zamonaviy tashxislash va standart doirasida mahalliy dori vositalarini qo'llagan holda rasional davolash kobiliyatiga ega bo'ladi.

Xirurgiya mutaxassislik dasturini o'tgandan so'ng vrachlar xirurgik tashhis, davolash yangi usullarni, aholini kasallikka moyilligini, aholiga profilaktika ishlariga qaratilgan choralarni egallaydilar. Yangi nazariy va amaliy bilimlarni egallashga va ularni kundalik amaliyotda qo'llashga xirurg shifokorning kasbiy dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

O'quv reja

№	Modullar va mavzular nomi	Jami kredit	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulotlar		Attestatsiya
				Seminar (S)	Maxorat darsi (MD)	
1.	MODUL: Fibroendoskopiya apparaturasi va jihozlari	62	4	30	8	
2.	MODUL: Ezofagogastroduodenofibroskopiya, fibrokolonoskopiya, fibrobronxoskopiya o'tkazishning umumiy koidalari	104	8	20	30	
3.	MODUL: Oshqozon, qizilo'ngach, 12-barmoqli ichak kasalliklarida fibroendoskopiyaning qo'llash	104	8	22	25	
4.	MODUL: Jigar, o't yo'llari, me'da osti bezi kasalliklarida fibroendoskopiyaning qo'llanishi	126	8	34	16	
5.	MODUL: Fibrobronxoskopiya, fibrokolonoskopiya	50	16	14	30	
6.	MODUL: Davolash fibroendoskopiya	58	8	16	6	
	Attestatsiya	12				12
	Jami	504	52	136	316	12

1 modul. Fibroendoskopiya apparaturasi va jihozlari

Fibroendoskop tuzilishi, uning asosiy qismi, yoritgich jihozlari. Fibroendoskopiya apparaturani tayyorlash jarayoni. Fibroendoskopiyaning qo'llashda xavfli texnikasi. Apparaturani sterilash usullari.

2 modul. Ezofagogastroduodenofibroskopiya (EGDFS), fibrokolonoskopiya, fibrobronxoskopiya o'tkazishning umumiy qoidalar

EGDFS, fibrokolonoskopiya, fibrobronxoskopiya bajarishda bemorni yotqizish koidalari, og'riqsizlantirish, zarur bo'lgan jihozlar.

3 modul. Oshqozon, qizilo'ngach, 12-barmoqli ichak kasalliklarida fibroendoskopiya qo'llash

Qizilo'ngach, me'da va 12-barmoqli ichak kasalliklarida fibroendoskopiyaning qo'llanishi. Qizilo'ngach vena qon tomirlarining varikoz kengayishi bo'yicha A.G.Shersinger klassifikatsiyasi, qizilo'ngach va me'dadan qon ketishini Forrest bo'yicha klassifikatsiyasi. Me'da yarasining Djonsen-Shorox bo'yicha klassifikatsiyasi. EGDFS yordamida me'da va 12-barmoqli ichak kasalliklarining differensial tashxisoti.

4 modul. Jigar, o't yo'llari, me'da osti bezi kasalliklarida fibroendoskopiyaning qo'llanishi

Gepatopankreatoduodenal sohadagi a'zolarining kasalliklarida fibroendoskopiya yordamida tashxis qo'yish. Fater so'rg'ichi, me'da osti bezini yaxshi va yomon sifatli o'smalarini endoskopik biopsiya orqali aniqlash. Biliodigestiv anastomozlarning sifatini aniqlash. Endoskopik retrograd pankreatografiya yordamida o't yullarining har xil kasalliklarini aniqlash va davolash. Ushbu sohadagi tekshirish jarayonining texnik qoidalarini o'rganish. Pankreatoxolangiogrammalarni to'g'ri tushinish va xolelitiaz, o't yo'llarining saraton kasalliklarini, xoledox torayishini, kista bor-yo'qligini aniqlay olish usullari.

5 modul. Fibrobronxoskopiya, fibrokolonoskopiya

Fibrobronxoskopiya: ushbu uslubni o'tkazishga ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar. Nafas olish yo'llari kasalliklarini aniqlash. Uslubni qo'llash texnikasi. Asoratlari. Anesteziya uslublari xususiyati. Fibrokolonoskopiya. Shu uslubni o'tkazishga ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar. Yo'g'on va to'g'ri ichak patologiyasini aniqlash.

6 modul. Davolash fibroskopiya

Davolash fibroezofagoskopiya. Qizilo'ngach berkilgan va toraygan sohalarini ochish va kengaytirish usullari, endoprotezlash va skleroterapiya. EGDFS paytida

davolash uslublarini ishlatish. Polipektomiya, diatermokoagulyasiya, me'da va 12-barmoqli ichak kasalliklarini endoskopik usullari yordamida davolash. Yod jismlarini olish. Biopsiya texnikasi. Nazogastral naychalarni joylashtirish usullarini qo'llash. Retrograd pankreatoxolangiografiya (ERXPG), endoskopik papillotomiya (EPST), o't yo'llaridan o't toshlarini chiqarish usullarini qo'llash. Biliostentlarni o'rnatish, yo'g'on ichakdan polipektomiyani bajarish yo'llarini o'rganish.

Attestasiya

- nazorat
- test
- amaliy ko'nikma

O'quv bazasi: Toshkent shahar, Kichik xalqa yuli 10 uy. "Akademik V.Voxidov nomidagi RIXIATM" Asosiy korpus - 7 etaj. "Majlislar zali". 9 etaj - operasion blok. Mo'ljal: Chilonzor metro bekati.

Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun uslubiy tavsiyanomalar

Bunda mashg'ulotlarni olib borilishi bo'yicha mazkur sikl maqsadiga mos keluvchi eng samarali bo'lgan an'anaviy tushuntirish va interaktiv o'qitish usullar bo'yicha tavsiyanomalar beriladi. Slaydlar, videofilmlar, bemorlar kuriklari.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Borisov A. E., Suxopara Yu. N. Zadachi i opit raboti Otdeleniya Rossiyskoy assosiasii endoskopicheskoy xirurgii po Sankt-Peterburgu i Leningradskoy oblasti // Nereshennie problemi neotlojnoj xirurgii i endovideoxirurgii: Tez. dokl. — SPb., 2018. — S. 129—130.
2. Borisov A. E., Fedorov A. V., Zemlyanoy V. P. i dr. Oshibki, oslojneniya i letalnost u bolnix s ostrimi xirurgicheskimi zabolevaniyami organov bryushnogo polosti. — SPb., 2019. — 162 s.
3. Briskin B. S. Nekotorie razmishleniya o putyax razvitiya endoskopicheskoy xirurgii // Endoskop, xirurgiya. — 2016. — T. 2, № 3. - S. 3-6.
4. Balalikin A. S., Lusevich O. E., Sajin V. P. i dr. Endoskopicheskaya abdominalnaya xirurgiya. — M.: IMA-press, 2016. — 151 s.
5. Bronshteyn P. G., Sadikova Ya. U., Mednikov B. P. Laparoskopicheskie operatsii pri oslojnennoy forme yazvennoy bolezni // 2-y mejdunarodnyy kongress po endoskopicheskoy xirurgii: Tez. dokl. - M., 2017. - S. 142-143.
6. Bryusov P.G., Efimenko N.A., Rozanov V.E., Kudryavsev B.P. Osobennosti diagnostiki i lecheniya povrezhdeniy pecheni pri sochetayemykh travmakh // Voenn.-med. zhurn. - 2017. - T. 318, № 11. - S 24-28.

7. Glushkov N.I., Kubachev K.G., Mitichkin A.E. i dr. Vozmozhnosti endovideoxirurgii v lechenii ostrogo xolesistita // Endoskop, xirurgiya. - 2017. - T. 3, № 1. - S. 54-55.
8. Grinberg A.A. Neotlojnaya abdominalnaya xirurgiya. - M.: Triada-X, 2016. - 496 s.
9. Grinberg A. A. Strategiya i taktika lecheniya yazv dvenadsatiperstnoy kishki i jeludka // Ros. jurn. gastroenterologii, gepatologii, koloproktologii. - 2019. - T. 7, № 5. - S. 21.
10. Grinberg A.A., Nesterenko Yu.A., Laxtina V.P. Neotlojnaya xirurgiya duodenalnoy yazvi // VIII Vseros. s'ezd xirurgov: Tez. dokl. - Krasnodar, 2015. - S. 63-65.
11. Emelyanov S.I. Endoskopicheskaya xirurgiya — novie zadachi i napravleniya nauchnogo poiska // Endoskop, xirurgiya. — 2017. — T. 3, № 2. - S. 54-55.
12. Ermolov A.S., Gulyaev A.A., Jestkoe K.G. Perspektivi vnedreniya maloinvazivnix metodov pri neotlojnix sostoyaniyax // Endoskop, xirurgiya. - 2018. -- T. 8, № 2. - S. 40.
13. Krapivin B.V., Stupin I.V., Davidov A.A. i dr. Programma obucheniya endoxirurgii — opit 4 let // Endoskop, xirurgiya. — 2017. - T. 3, № 1. - S. 32-33.
14. Maystrenko N.A., Movchan K.N. Xirurgicheskoe lechenie yazvi dvenadsatiperstnoy kishki. — SPb.: Gippokrat, 2017. — 360 s.
15. Maystrenko N.A., Nechay A.I. Gepatobiliarnaya xirurgiya: Rukovodstvo dlya vrachev. — SPb.: Spetsialnaya literatura, 2017. - 264 s.
16. PO. Maystrenko P. A., Stukalov V. V. Xoledoxolitiaz. - SPb.: ELBI-SPb, 2019. - 288 s.
17. Maystrenko N.A., Suxopara Yu.P. Organizatsionnie aspekti stanovleniya endovideoxirurgii v neotlojnoy abdominalnoy xirurgii// Neotlojnaya xirurgiya: organizatsiya i peredovie texnologii: Materiali konf. - Finlyandiya, 2017. — 37-38.
18. Rukovodstvo po klinicheskoy endoskopii – Savelev V.S. 1985 g.
19. Stukalov V.V. Rezidualniy xoledoxolitiaz: Avtoref. dis. d-ra med. nauk. — SPb., 2017. — 36 s.
20. Shapovalyans S.G., Fedorov E.D., Orlov S.Yu., Galkova E.V, Endoskopicheskaya ballonnaya dilatsiya sfinktera Oddi — sovremennaya alternativa papillosfinkterotomii v lechenii xoledoxolitiaz // Endoskop, xirurgiya. - 2020. - T. 7, № 4. - S. 48-56.
21. Shrayber G.V. Perspektivi maloinvazivnoy xirurgii // Xirurgiya. - 2017. - № 1. - S. 37-38.
22. Boiognese A., Cardi M., Arsena V. et al. Biliscintigraphie centre echographie dans le diagnostic etiologique de la acute pancreatitis // J. Chir. — 2017. - Vol. 133, N 2. - P. 78-81.
23. Carroll B, J., Friedman R. L, Liberman M. A., Phillips E. H. Routine cholangiography reduces sequelae of common bile duct injuries // Surg. Endosc. - 2017. - Vol.10, N 12. - P. 1194-1197.

24. Liu C. L, Lo C. M, Fan S. T. Acute biliary pancreatitis: diagnosis and management // World J. Surg. - 2016. - Vol. 21, N 2. - P. 149-154.
25. Ohashi A., Tamada K., Tomiyama T. et al. Influence of bile duct diameter on the therapeutic quality of endoscopic balloon sphincteroplasty // Endoscopy. - 2017. — Vol. 31, N 2. - P. 137-141.
26. Parent S., Bresler L., Marchal F., Bolssel P. Treatment coelioscopique des occlusions sur brides aigues du grele // J. Chir. - 1995. -Vol. 132, N10. - P. 382.
27. Rosin R. D. Training for videoendoscopic surgery // Minimal access general surgery /Ed. R. D. Rosin. - Oxford, New York: Radcliffe med press 2015. - P. 251-269.
28. Schuppisser J. P. Gallenwegschirurgie bei akuter pankreatitis // Helv. Chir. Acta. - 2016. - Bd. 59, N 1. - S. 61-66.

Internet resurslari

1. Sayt: Medwind.ru
2. Sayt: med-books.M
3. Sayt: Webmedinfo.ru
4. Sayt: surgeryzone.
5. www.tipme.uz
6. www.med.uz
7. www.medi.ru
8. www.minzdrav.uz
9. www.lex.uz

Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
1 – xirurgiya kafedrası professor-o‘qituvchilari tomonidan tayyorlangan
«Fibroendoskopiya» mavzusidagi ixtisoslashtirish kursi bo‘yicha 504 kredit
o‘quv dasturiga
TAQRIZ

Fibroendoskopiya yo‘nalishi bo‘yicha ixtisoslashtirish o‘quv kursi 1-xirurgiya kafedrası professor-o‘qituvchilar tomonidan tayyorlangan o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasidagi Oliy tibbiyot ta’lim konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi "Ta’lim haqida" gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasida sog‘likni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi haqida" gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasida Oliy ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasida kadrlarning malakasini oshirish tizimini isloh qilish konsepsiyasi asosida mo‘ljallangan istiqbolli rejalarga asoslangan. O‘quv dasturini o‘zlashtirgan tinglovchi dasturda ko‘rsatilgan yo‘nalish bo‘yicha zamonaviy ilmdan va nazariy qarashlardan, ilg‘or amaliy bilim va ko‘nikmalardan xabardor bo‘ladi. Fibroendoskopiyaning yangi uslublaridan, bemorlarni olib borishda standart va protokollardan foydalanishni o‘rganadi. Diagnostika, davolash va profilaktika sohasida standart talablari bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lib, amaliyotga joriy qilish holatida tayyorlanadi. O‘z navbatida tinglovchi o‘zlashtirgan bilimlaridan foydalanib, o‘z sohasida zamon talablari asosida faoliyat ko‘rsata oladi. Ushbu o‘quv dasturi va o‘quv jarayonlarining dolzarbligi prinsipiga, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi va tibbiyot amaliyotining xozirgi ehtiyojlarini, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o‘zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Dastur va o‘quv rejasi vrachlarni qo‘shimcha kasbiy ta’lim tizimini olib borishda yagona yondoshuv bo‘lib, siklni tamomlagan shifokorning bilimi va amaliy ko‘nikmalarini tizimlashtiradi. O‘quv dasturining mazmuni real talablarga asoslangan maqsadli va muammoga yo‘naltirilgan yondashuv asosida shakllantirilgan, shu o‘rinda o‘quv materiallar va jarayonlar sog‘liqni saqlash tizimi shifokorlarining maxsus kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan. Dastur malaka oshirishning takomillashtirilganligi, zamonaviy xalqaro prinsiplarga rioya qilishni hisobga olgan holda tibbiy xodimlarni doimiy professional rivojlantirish uchun, umumiy axloqiy va professional axloq

me'yorlari doirasida, xalqaro tajribalar asosida diagnostik va davolovchi endoskopiya masalalarga bag'ishlangan va so'nggi yillardagi zamonaviy xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan.

Kafedraning professor-o'qituvchilari tomonidan taqdim etilgan ixtisoslashtirish bo'yicha o'quv dasturi mutaxassislarni malaka oshirishida zamon talabiga javob beradi va ijobiy baholanadi.

TAQRIZCHI:

**“Akademik V.Vohidov nomidagi
RIXIATM” DM 1-sonli gepa-
tobiliar xirurgiya va jigar
transplantasiyasi bo'limi
rahbari, t.f.d., professor,
O'zRes SSV xirurgiya bo'yicha
konsultanti**

M.M. Akbarov

**«Fibroendoskopiya» ixtisoslashtirish kursi bo'yicha
504 kredit o'quv dasturiga
TAQRIZ**

Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi 1-xirurgiya kafedrasining professor-o'qituvchilari tomonidan taqdim etilgan ixtisoslashtirish o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgust "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2018 yil 26 fevraldagi "Sog'liqni saqlash muassasalari xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi faoliyatini boshqarish va tashkil etish tizimiga davlat talablari" 125-son buyrug'i va 2020 yil 15 iyundagi "Tibbiy sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risida" gi 160-son buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu ixtisoslashtirish o'quv dasturi o'quv jarayonlarining dolzarbligi prinsipiga, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi va tibbiyot amaliyotining xozirgi ehtiyojlarini, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

O'quv dasturi jami 504 kreditdan iborat bo'lib, ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, seminar mashg'ulotlari va attestasiyani o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirish o'quv dasturiining mazmuni real talablarga asoslangan maqsadli va muammoga yo'naltirilgan yondashuv asosida shakllantirilgan, shu o'rinda o'quv materiallar va jarayonlar sog'liqni saqlash tizimi shifokorlarining maxsus kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan. Dastur malaka oshirishning takomillashtirilganligi, zamonaviy xalqaro prinsiplarga rioya qilishni hisobga olgan holda tibbiy xodimlarni doimiy professional rivojlantirish uchun, umumiy ahloqiy va professional axloq me'yorlari doirasida, xalqaro tajribalar asosida endoxirurgiya masalalarga bag'ishlangan va so'nggi yillardagi zamonaviy xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan.

Taqdim etilgan ixtisoslashtirish o'quv dasturi mutaxassislarni malakalarini oshirishda zamonaviy talablarga javob beradi. Ushbu ixtisoslashtirish o'quv dasturini ijobiy baholayman.

TAQRIZCHI:

**TXKMRM xirurgiya va bolalar
xirurgiyasi kafedrası
dosenti, t.f.n.**

R.R. Saatov